

O'ZBEKISTONDA XOM IPAK MAHSULOTLARINING EKSPORT VA IMPORT TAHLILI

N.M.Muminova

“Buxgalteriya hisobi va marketing” kafedrası professori

Iqtisodiyot fanları doktori (DS),

I.S.Imomov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda xom ipak mahsulotlarining iqtisodiy tahlili yoritilgan. Unda xom ipak mahsulotlari bozorining holati, eksport va import ko'rsatkichlari, ularning dinamikasi hamda tashqi savdo jarayonlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mahsulotlarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xom ipak, ipak mahsulotlari, eksport, import, iqtisodiy tahlil, tashqi savdo, bozor tahlili, O'zbekiston, savdo ko'rsatkichlari, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассмотрен экономический анализ продукции сырого шелка в Узбекистане. Проанализированы текущее состояние рынка сырого шелка, показатели экспорта и импорта, их динамика, а также особенности внешнеторговых процессов в данной сфере. Кроме того, освещены значение продукции сырого шелка для экономики страны и перспективы дальнейшего развития данного направления.

Ключевые слова: сырой шелк, шелковая продукция, экспорт, импорт, экономический анализ, внешняя торговля, анализ рынка, Узбекистан, торговые показатели, экономическая эффективность.

Annotation. This article examines the economic analysis of raw silk products in Uzbekistan. It analyzes the current state of the raw silk market, export and import indicators, their dynamics, and the specific features of foreign trade processes in this field. In addition, the importance of raw silk products for the national economy and the prospects for further development of this sector are considered.


Keywords: raw silk, silk products, export, import, economic analysis, foreign trade, market analysis, Uzbekistan, trade indicators, economic efficiency.

Xom ipak ishlab chiqarish – O'zbekistonning an'anaviy va strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biridir. O'zbekiston iqtisodiyotida ipakchilik nafaqat qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishida, balki mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda global bozor sharoitlarida raqobat kuchayib, iste'molchi talabi tez o'zgarishi, xom ipak narxlarining dinamikligi va sifat talablari korxonalardan samarali marketing tadqiqotlarini olib borishni talab qilmoqda. Shu sababli, xom ipak mahsuloti bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun bozorni chuqur o'rganish, raqobatchilar tahlilini amalga oshirish va iste'molchi talablarini oldindan aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuningdek, davlatimiz raxbari tomonidan 2023 yil 1 martdan 2026 yil 1 yanvargacha pillani qayta ishlash va pilla qurti urug'ini ishlab

chiqaruvchilarga ular tomonidan bevosita pilla boquvchilarga yetkazib berilgan har quti ipak qurti urug'i uchun 120 ming so'm miqdorida subsidiya ajratilishi belgilab beerildi.¹ Mazkur islohot sohani samarali boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va eksport salohiyatini oshirish uchun institutsional asos yaratdi.

Marketing tadqiqotlari korxona faoliyatining barcha bosqichlarida — mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, uning sotuviga qadar bo'lgan jarayonlarda hal qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, xom ipak mahsuloti eksportida muvaffaqiyatga erishish uchun mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish, narx va marketing siyosatini bozor talablariga moslashtirish, yangi bozorlarni aniqlash va marketing strategiyasini ishlab chiqish muhimdir. Ilmiy asoslangan marketing tadqiqotlari bozorni segmentlashtirish, iste'molchi profillarini aniqlash, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish va mahsulotni global standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, xom ipak tarmog'ida marketing tadqiqotlarining roli yanada oshmoqda, chunki mamlakatning eksport salohiyati, milliy ishlab chiqarish va ish o'rinlarini yaratish to'g'ridan-to'g'ri bozor sharoitiga bog'liq. O'zbekistonning ipak bozorida raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish, sifatni oshirish va yangi eksport imkoniyatlarini aniqlash faqat ilmiy asoslangan marketing tadqiqotlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, marketing tadqiqotlari xom ipak mahsulotining milliy va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli sotilishini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.




1- rasm. Xom ipak mahsulotining umumiy to'qimachilik eksportidagi ulushi²

2021–2025-yillar davomida O'zbekistonning xom ipak eksporti umumiy to'qimachilik eksporti tarkibida nisbatan kichik ulushni egallagan bo'lsa-da, ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2022 yildagi PQ-224-son

² Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yo‘nalish bo‘yicha yillik tendensiyalar sezilarli darajada o‘zgaruvchan bo‘lgan. 2021-yilda xom ipak eksporti 17 178,5 ming AQSh dollarini tashkil etib, umumiy to‘qimachilik eksportining juda kichik qismini qamrab olgan. 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 20 183,6 ming dollarga ko‘tarilib, segmentning ulushi biroz oshgan. Ammo 2023-yilda xom ipak eksporti 19 640,4 ming dollarga kamaygan bo‘lib, bu to‘qimachilik bozorida global talabning o‘zgarishi bilan izohlanadi. 2024-yilda eksport hajmi yana keskin pasayib, 14 811,7 ming dollarga tushgan, 2025-yilga kelib esa 8 499,9 ming dollargacha qisqargan. Bu raqamlar xom ipakning eksport tarkibida kichik segment sifatida qatnashayotganini, ammo yillar davomida uning ulushi asosan pasayish tendensiyasini namoyon etganini ko‘rsatadi.




2 – rasm. Xom ipak mahsulotining umumiy to‘qimachilik importidagi ulushi³

2021–2025 yillar davomida O‘zbekistonning xom ipak importi dinamikasi sezilarli tebranishlar bilan kechgan bo‘lib, ayrim yillarda keskin pasayish, ayrim yillarda esa tiklanish jarayonlari kuzatilgan. 2021-yilda xom ipak importi 356,8 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 va 2023-yillarda ushbu ko‘rsatkich keskin kamayib, deyarli nol darajaga tushib qolgan. Bu holat mazkur yillarda xom ipak bo‘yicha ichki ta‘minotning kuchayishi yoki tashqi bozorlardagi taklifning vaqtinchalik qisqarishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mazkur davrda O‘zbekistonga xom ipak importi asosan bitta davlatdan, ya‘ni Ozarbayjon davlatidan amalga oshirilgani kuzatiladi. Bu esa import geografiyasining tor doirada shakllanganini va xom ipak ta‘minotida aynan shu davlat bilan savdo aloqalari muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. 2024-yilda xom ipak importi qayta tiklana boshlagan bo‘lib, 137,7 ming dollarga yetgan, 2025-yilda esa o‘sish sur‘ati davom etib, 157,9 ming dollarga ko‘tarilgan. Bu esa sohada qayta tiklanish jarayoni boshlanganligini hamda ichki ishlab

³ Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

chiqaruvchilar tomonidan xom ipak resurslariga bo'lgan ehtiyoj yana ortganini ko'rsatadi. Umuman olganda, 2021–2025 yillarda xom ipak importining ulushi umumiy to'qimachilik importi tarkibida nisbatan past bo'lsa-da, ayrim yillarda uning roli sezilarli bo'lgan. Xususan, 2021-yilda xom ipak umumiy import tarkibida muhim segment sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, 2022–2023-yillarda uning ulushi deyarli yo'qolgan, 2024–2025-yillarda esa qayta tiklanib, barqarorlashish alomatlari kuzatilgan.



3 –rasm 2021-2025 yillarda xom ipak mahsuloti eksport va import korsatkichlari tahlili⁴

2021–2025-yillar bo'yicha xom ipak mahsulotlari eksport–import ko'rsatkichlari dinamik tahlili ushbu segmentda tashqi savdo muvozanatining aniq eksportga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Jadvalga ko'ra, 2021-yilda eksport hajmi 17 178,5 ming AQSh dollarini, import esa atigi 356,8 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, juda yuqori ijobiy savdo balansini yuzaga keltirgan. 2022 va 2023-yillarda importning umuman kuzatilmashligi (0) eksportning mos ravishda 20 183,6 va 19 640,4 ming AQSh dollari darajasida saqlanishi bilan birga, mamlakatning to'liq eksportga yo'naltirilganligini va ichki iste'mol hamda qayta ishlash ehtiyojlarining asosan milliy resurslar hisobidan qoplanayotganini anglatadi.

2024-yilda eksport hajmi sezilarli ravishda kamayib, 14 811,7 ming AQSh dollarini tashkil etgan, shu bilan birga import 137,7 ming AQSh dollariga yetgan. Bu tashqi bozor talabining pasayishi, narxlar tebranishi yoki geoiqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida eksport 8 499,9 ming AQSh dollarigacha qisqargan, import esa 157,9 ming AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, yil davomida pasayish trendining davom etishi ehtimolini ko'rsatadi,

Mazkur maqolada O'zbekistonda xom ipak mahsulotining iqtisodiy ahamiyati, ishlab chiqarish jarayoni hamda xalqaro bozordagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot

⁴ Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

natijalari shuni ko'rsatadiki, xom ipak ishlab chiqarish nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq, balki madaniy, ijtimoiy va ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ipak qadimdan insoniyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan bo'lib, uning ishlab chiqarilishi ko'plab mamlakatlarda an'anaviy hunarmandchilik va mahalliy iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo'shgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xom ipak ishlab chiqarish sohasida yetakchi davlatlar – Xitoy, Hindiston, Vyetnam va Eron – ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali global bozorda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi ipakchilik sohasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv tizimlarining muhimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ipak ishlab chiqarish jarayonida yangi innovatsion texnologiyalar – bio-silk va nano-silk kabi usullar tobora keng qo'llanilmoqda. Bio-silk texnologiyasi biotexnologiyaga asoslangan bo'lib, u ekologik toza va tabiiy ipak tolalarini olish imkonini beradi. Ushbu texnologiyada ipak qurti yetishtirish jarayoni yanada samarali tashkil etiladi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Natijada sifatli va ekologik jihatdan xavfsiz ipak mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Nano-silk texnologiyasi esa ipak tolalarini nano darajada qayta ishlash va mustahkamlashga asoslangan bo'lib, uning yordamida ipak mahsulotlarining mustahkamligi, elastikligi va chidamliligi oshiriladi. Nano texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan ipak tolalari yengil, mustahkam va yuqori sifatga ega bo'lib, nafaqat to'qimachilik sanoatida, balki tibbiyot, kosmetika hamda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishda ham qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ham xom ipak ishlab chiqarishni rivojlantirishda ana shunday innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, milliy ipak mahsulotlarini xalqaro bozorlarda targ'ib qilish, yangi eksport yo'nalishlarini ochish va milliy brendlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2022-yil 26-aprel, PQ-224-son.
2. Abdullaev, S. O'zbekiston ipakchilik tarixi va rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. — stat.uz.
4. Xorijiy adabiyotlar
5. Mondal, S., Trivedi, R. Bio-silk and Nano-silk Technologies. — London: Springer, 2020.
6. Zhang, L. Global Silk Market and Production Trends. — Shanghai: Textile World, 2018.